

O'qituvchi keyingi darsga o'quvchilar tabiiy materiallar tayyorlashlari kerakligini ma'lum qiladi.

O'qituvchi savollar beradi:

1. Tabiiy materiallar nima? (*Barglar, g'umbaklar, sholg'omlar, kashtanlar, urug'lar, yong'oqlar, toshlar*).

2. Tabiiy materiallarni qayerdan yig'ish mumkin? (*Bog'dagi yoki uy yonidagi daraxtlar ostidan*).

O'qituvchi o'quvchilarga mustaqil ravishda yoki kattalar bilan birgalikda internet tarmog'idan foydalanib tabiiy materiallardan tayyorlangan buyumlarni ko'rib chiqishni tavsiya qiladi.

Kutilayotgan natijalar:

- o'quvchilarga kuzgi barglardan applikatsiya tayyorlashni o'rgatish;
- o'quvchilarning fantaziysi va tasavvurini rivojlantirish.

5-DARS. TABIIY MATERIALDAN YASALGAN BUYUMLAR

Dars maqsadlari:

- qo'l mehnati orqali fantaziya va tasavvurni namoyon etish qobiliyatini rivojlantirish;
- tabiiy materiallardan buyumlar tayyorlash mahoratini o'stirish;
- tabiiy materiallardan buyumlar yaratishda tasavvur va fantaziyanı qo'llash ko'nikmasini rivojlantirish.

Kerakli materiallar: rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalamlar, tabiiy materiallar, darslik, buyum namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).

O'qituvchi bugungi darsning maqsadi tabiiy materiallardan buyum tayyorlash ekanligini aytadi.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

1. Bugungi topshiriq uchun nimalarni tayyorlab keldingiz? (*Tabiiy materiallar: turli daraxtlarning barglari, g'umbaklar, yong'oq po'choqlari, shoxchalar, urug'lar*).
2. Bu materiallarni inson yaratganmi yoki tabiat? (*Tabiat*).
3. Siz bu materiallardan nima tayyorlashni xohlaysiz?

3. Namuna tahlili (5 daqiqa).

Darslikda misol tariqasida quyidagi applikatsiya turlari keltirilgan: barglardan yasalgan tipratikon, yong'oq po'chog'idan tayyorlangan sichqonchalar, qovoq urug'laridan yasalgan kuzgi daraxt va zarang bargidan yasalgan hayvon tumshug'i. O'qituvchi ishni boshlashdan avval reja tuzish, barcha zarur materiallar va asboblarni tayyorlab qo'yish lozimligini eslatadi.

4. Amaliy qism (25 daqiqa).

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lganda, o'qituvchi yordam beradi.

5. Yakunlash va o'z-o'zini tahlil qilish (5 daqiqa).

Dars yakuni savol-javob zanjiri orqali umumlashtiriladi. O'quvchilar navbatma-navbat darsda nimani o'rganganliklarini, nimalar qiziqarli bo'lganini va qaysi jihatlar qiyinchilik tug'dirganini bayon qilishadi.

So'ngra, o'qituvchi o'quvchilarga keyingi dars uchun tabiiy materiallar (qarag'ay g'umbaklari) tayyorlab kelish zarurligini ma'lum qiladi.

Kutilayotgan natijalar:

- ko'zlangan natijaga erishish uchun o'z faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtirish va amalga oshirishni o'rgatish;
- buyum tayyorlash uchun kerakli asbob-uskunalar va usullarni tanlashni o'rgatish.

6-DARS. TIPRATIKANLAR

Dars maqsadlari: